

**YER TUZISHNI LOYIHALASHNING  
AVTOMATLASHGAN TIZIMLARI  
(YTLAT)  
fani bo‘yicha  
TAQDIMOTLAR**

# **YTLAT fanidan 7-semestrda o'tiladigan mavzular**

**7-semestr**

**Yer tuzishda ekspert tizimlari**

**8**

**Avtomatlashtirilgan tizimlardan yer tuzish va yer  
kadastro ishlarida foydalanish**

**12**

**Jami**

**20**

T/r	Mavzular nomi	Mashg'ulot turi	Ajratilgan vaqt
	<b>1-mavzu:: Yer tuzishda ekspert tizimlari</b>		<b>8</b>
1	Ekspert tizimlarining tarkibi va imkoniyatlari	Ma'ruza	2
2	Ekspert tizimlaridan foydalanish sohalari	Ma'ruza	2
3	Yer tuzishda ekspert tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari va kelajagi	Ma'ruza	2
4	Yer tuzishda ekspert tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari va kelajagi	Ma'ruza	2
	<b>2-mavzu. Avtomatlashtirilgan tizimlardan yer tuzish va yer kadastro ishlarida foydalanish</b>		<b>10</b>
5	"PANORAMA" majmuasidan yer tuzish va yer kadastro ishlarini avtomatlashtirishda foydalanish	Ma'ruza	2
6	Karta 2008 geoaxborot tizimi	Ma'ruza	2
7	Panorama – Tahrirchi vektorlovchisi	Ma'ruza	2
8	Gis ToolKit- инструментал воситаси."Ер ва Ҳуқуқ" кадастр тизими	Ma'ruza	2
9	Yer tuzish va yer kadastro ishlarida foydalaniladigan avtomatlashtirilgan tizimlar	Ma'ruza	2
<b>Jami:</b>			<b>18</b>

# **Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha tavsiya qilinayotgan adabiyotlar**

## **Asosiy adabiyotlar:**

- \* 1. Andreas C. Land Information systems.Germany, 2016
- \* 2.S.Avezbayev, A.Muqumov. Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlarii. O'quv qo'llanma – Toshkent: TIQXMMI, 2020. – 152 b.
- 3. S. Avezbayev. Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan тизимлари.Т.:TIMI, 2010-168 b.
- 4. С.Н.Волков. Землеустройство. Системы автоматизированного проектирования в землеустройстве. - М.: “Колос”, 2018. – 450 б.

## **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 5. S.N.Volkov. Zemleustroystvo. Ekonomiko-matematicheskiye metodi i modeli. Tom-4 – М.: “Kolos”.

## **Internet resurslari:**

- 1. [http:// www.Tsure.ru/](http://www.Tsure.ru/);
- 2. [http:// www.guz.Ru/](http://www.guz.Ru/)
- 3. <http://www.Ziyonet.Uz/>.


## **FAN BOYICHA O'TILGAN MAVZULARNI TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**


- 1. YTLAT tushunchasi nimani anglatadi?**
- 2. YTLATning tarkibi qanday qismlardan tashkil topgan?**
- 3. Yer tuzish jarayonida qo'llaniladigan qaysi avtomatlashgan tizimlarni bilasiz ?**
- 4. GIS va ZIS tizimlari o'rtasida qanday farqlar mavzud ?**

Murakkab tizimlarni yaratish va foydalanish hamda ularni avtomatlashtirish nazariyasidan kelib chiqib, prof.S.N.Volkov “Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari (YTLAT)” ga quyidagi ta’rifni bergan:


Учебник.  
Землеустройство. 6-том.

**YTLAT**- bu loyiha tashkiloti bo‘limlari bilan o‘zaro bog‘langan holda, loyihalash ishlarini avtomatlashgan tartibda ЕНМ larda bajaradigan, tarkibi loyihalashni avtomatlashtirish vositalari majmuidan iborat bo‘lgan tashkiliy-texnik tizimdir





# Yer tuzish jarayonida qo'llaniladigan avtomatlasgan tizimlar




# GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI

Dunyo mamlakatlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki Yer tuzishda loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimlarini (YETLAT) yaratishni geografik axborot tizimlaridan (GAT) keng foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas.

**GAT bu nima?**

ixtisoslashgan kompyuter tizimlari, o'z ichiga dasturiy ta'minotni va hududiy bog'lanishga ega, katta hajmdagi chizma va yozma ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tayyorlash uchun zarur texnik vositalar yig'indisi.


# GATning tarkibiy qismlari



**YAT qanday  
vazifani  
bajaradi?**

**Asosiy vazifasi**-yer to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish va hisobga olish asosida yer resurslarini boshqarishni ta’minlashdan iborat

YAT nazariy jihatdan GATning tarkibiy qismi hisoblanishi kerak, ammo o‘ziga xos ma’lumotlarning katta oqimini hisobga olib, ularni mustaqil tizimlarga ajratishadi. Shunga qaramasdan, ularning imkoniyatlarini kengaytirish uchun maxsus dasturiy mahsulotlar yaratilgan (masalan, *InterLIS*). Ular doimiy ravishda bu ikki tizim orasida yozma va chizma ma’lumotlarni almashib turish imkoniyatini yaratadi.



### YATning tarkibiy qismlari:

1. “Tayanch nuqtalari (rejaviy va balandlikli)” ma'lumotlar qatlami;
2. Chegaralar qatlami ;
3. “Yerlardan foydalalanish maydonli obyektlar” qatlami ;
- 4.“Nuqtali /chiziqli obyektlar” qatlami ;
- 5.“Joyning relyefi” qatlami;
6. “Geografik nomlar” qatlami.

# **YAT BILAN GAT O'RTASIDA QANDAY FARQLAR MAVJUD?**

Yer axborot tizimlari (YAT) birinchi navbatda yer resurslari va yer bilan ajralmas bog'langan ko'chmas mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi

YATlardagi yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlar o'lichashlar aniqligiga, ma'lumotlarni kiritish va chiqarishga yuqori talablar qo'yadi. Bu yerlarni hududga geodezik bog'lash va ularni planlarda (xaritalarda) tasvirlash uchun zarur. Boshqacha aytganda, YATlari GATlarga nisbatan aniqroq hisoblanadi

# YAT BILAN GAT O'RTASIDA QANDAY FARQLAR MAVJUD?

YATning umumiy tarkibiga maxsus hisoblash majmuasi, mustaqil ichki tizim sifatida quyidagi bloklar kiradi: avtomatlashgan xaritalash; avtomatlashgan loyihalash; ma'lumotlar bazasini boshqarish. Ular raqamli fotogrammetriya va xaritalash vositalaridan foydalangan holda turli xil miqyosdagi karta va planlarni yaratish bilan birga, turli xil geodezik xarakatlarni (maydonlarni hisoblash, masofalarni o'lichash, koordinatalarni aniqlash va boshq.) talab etilayotgan aniqlikda bajarish imkonini beradi

YATlarining asosiy vazifasi yer to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobga olish asosida yer resurslarini boshqarishni ta'minlash hisoblanadi



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN

Yer tuzishni loyihalashning  
avtomatlashgan tizimlari

MAVZU  
07

Yer tuzishda ekspert tizimlari



MUQUMOV ABDUG'ANI  
MURATOVICH



YERDAN FOYDALANISH  
KAFEDRASI



**7-MAVZU:**  
**YER TUZISHDA EKSPERT TIZIMLARI**  
**(8 soat)**  
**REJA:**

- 1.Ekspert tizimlarining tarkibi va imkoniyatlari.**
- 2.Yer tuzishda ekspert tizimlaridan foydalanish kelajagi.**

## **7-MAVZU. 1- MA'RUZA**

**Mavzu: Ekspert tizimlarining tarkibi va  
imkoniyatlari**

**REJA:**

- 1.Ekspert tizimlari tushunchasi.**
- 2.Ekspert tizimini yaratish texnologiyasi  
bosqichlari.**

# **Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha tavsiya qilinayotgan adabiyotlar**

## **Asosiy adabiyotlar:**

1. Andreas C. Land Information systems.Germany, 2016
2. С.Авезбаев. Ер тузишни лойиҳалашнинг автоматлашган тизимлари. Дарслик – Тошкент: ТИМИ, 2008. – 135 б.
3. S. Avezbayev, A.Muqumov. Yer tuzishni loyihalashning automatlashgan tizimlari.T.:TIQXMMI, 2020-152 b.
4. С.Н.Волков. Землеустройство. Системы автоматизированного проектирования в землеустройстве. Том 6. - М.: “Колос”, 2002. – 450 с.

## **Qo'shimcha adabiyotlar:**

5. С.Н.Волков. Землеустройство. Экономико-математические методы и модели. Том-4 – М.: “Колос”.

## **Internet resurslari:**

1. <http://www.Tsure.ru/>;
2. <http://www.guz.Ru/>
3. <http://www.Ziyonet.Uz/>.

## EKSPERT TIZIMLARI TUSHUNCHASI

**Ekspert tizimlari** deganda -qo'yilgan aniq amaliy masalalarni yechishda ma'lumotlar bazasi obyektlari bilan manipulyatsiya qilish imkoniyatini ta'minlovchi, ahamiyatli komponentlardan tashkil topgan bilimlar bazasi (ularni taqdim etish uchun belgilangan shaklga mos qurilgan) va chiqarish mexanizmidan tashkil topgan **inson-mashina tizimi** tushuniladi.

## Topqirlik konsepsiysi (9)

Har qanday interaktiv tizimda foydalanuvchi bilan EHM orasidagi muloqot qanchalik sodda bo'lsa, u shunchalik sifatli hisoblanadi. Bunga tizimning maxsus ishlangan elementi yordamida erishiladi. U barcha hisoblash elementlari bilan muloqot ichki tizimi tarkibiga kiradigan interfeyslar va ayrim ijodiy vazifalarni modellashtirishni ta'minlaydi. Topqirlik (evristiklik) konsepsiyasidan oldin shakllantirilmagan va tizimning dasturiy bloklariga kiritilmagan yechimni qabul qilish zarurati tug'iladigan vaziyatlarda foydalaniлади. «**Sun'iy intellekt»ni** yer tuzish maqsadlari uchun mo'ljallangan avtomatlashgan tizimlarda foydalanish bilimlar bazasiga va har xil dasturlar majmualariga asoslanadi.

### Konsepsiyaning mazmuni

Tizimning hisoblash elementi dasturi boshqarishni ko'rileyotgan elementga beradi, u esa kerak yechimni modellashtirishga harakat qiladi. Loyihachida taklif etilgan yechimga rozi bo'lish, unga tuzatish kiritish, yaroqsiz deb topish yoki masalani yechish jarayoniga alternativ boshqarish yo'lini tanlab o'zgartirish kiritish imkoniyati goladi

## SUN'iy INTELLEKT TUSHUNCHASI

YTLAT va GATlarning kelajakdagi rivojlanishi ko'p jihatdan ekspert tizimlarini yaratish va foydalanishga bog'liq. Ular sun'iy intellekt tizimining bir turi hisoblanadi. Sun'iy intellekt – bu XX asrning 50 yillarida kibernetika, lingvistika, psixologiya va dasturlash fanlari orasida paydo bo'lib, Viner, Makkalok va Rozenblatlarning neyron tarmoqlari bo'yicha ishlaridan boshlangan va tez rivojlanayotgan ilmiy fandir. Uni bilimlar va ularni qanday qilib olish, sun'iy tizimlarda ko'rsatish, ularning ichida qayta ishlash va amaliy masalalarni yechish uchun foydalanish to'g'risidagi fan sifatida qarash mumkin. Hozirgi vaqtda ushbu sohadagi izlanishlar bir qancha asosiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi.

## Suniy intelekt bo'yicha izlanishlarning asosiy yo'nalishlari

Tabiiy tilga ishllov berish va mulloqatni modellashtirish

Ekspert tizimlarini shakllantirish

Teoremmalarni avtomatik tizimdan foydalanib isbotlash bilan  
bog'liq ishlar

Robot – texnikalarni yaratish sohasida


Standart va nostandart savol-javob tizimlarini yaratishda

Avtomatiashgan tizimda loyihalash ishlarida

Tasvirlarni (aiyofalarni) tanish bilan bog'liq ishlarda

Turli kombinatsiyalli masalalarni (boshootirmalar, o'yinlarni)  
yaratish va yechishda

**Ekspert tizimlari** – bu aniq amaliy masalalalarini yechishda baza obyektlari bilan manipulyatsiya qilishni ta'minlovchi, ahamiyatli komponentlari bilimlar bazasi (ularni taqdim etish uchun belgilangan shaklga mos qurilgan) va chiqarish mexanizmidan iborat odam-mashina tizimidir.



## Bilimlar bazasi o'zida nimalarni ifodalaydi?

**Bilimlar bazasi** -o'zida ma'lum bilim sohasidagi mutaxassislarning bilimlari yoki ekspertlarning ma'lumotlari to'plamini ifodalaydi.

**«Chiqarish mexanizmlari bloki (yechuvchi)»** yordamida ekspertlarning professional bilimlari va real vaziyatlar (masalaning kiruvchi ma'lumotlari) orasida aloqalar belgilanadigan mantiqiy harakatlar yig'iladi.

Demak, ekspert tizimlari asosiy bilim sohasi va unga mos masalalarni yechish usullari to'g'risidagi ekspertlarning **tasavvurlari modeli** hisoblanadi. Bunday tizimning takomilashganligi darajasi ushbu bilim sohasiga tizim yaratuvchilarining qanchalik chuqur kirib borganliklariga hamda ularning tajribasiga bog'liq bo'ladi

Bilimlar  
taxrirkishi

bazasi

Ekspertlardan olinadigan  
bilimlar

Bilimlar bazasi  
(bilim sohasi  
bo'yicha ma'lum  
dalillar, ushbu  
bilimlarni  
ko'rsatuvchi)

Bilimlarni  
o'zlashtirish


Ma'lumot-  
lar bazasi

Ciqarish mexanizmi  
(interpretator,  
rejachi)

Foydalanuvchi  
so'rovni

Foydalanuvchi

Foydalanuvchi



**Yer tuzishni  
loyihalash  
masalalarini  
yechishda  
doimiy ravishda  
ko‘p sonli  
ekspertlar  
bilimlarini jalb  
etilishi sabablari**

ushbu turdagি masalalarining ko‘pchiligi kuchsiz shakllangan

masalalarni qo‘yishda mutaxassis–ekspertlarning qatnashishi shartligi

turlicha, biroq amaliy jihatdan teng qiymatli loyihalar olish imkoniyatining mavjudligi

yechimlarning yagona algoritmi yo‘qligi

loyihalashning navbatdagi qadamlarida  
loyihalanuvchi obyektlarning murakkabligi oshib borishi va hisobga olinadigan ko‘rsatkichlar sonining ko‘payishi

## **Ekspert tizimlari klassifikatsiyasi**

**Interpretatsiya bosqichi** (kuzatilayotgan ma'lumotlar bo'yicha vaziyatlarni baholash)

**Bashoratlash bosqichi** (berilgan vaziyatdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan xulosalarni chiqarish)

**Tashxis qo'yish bosqichi** (diagnostika, texnik tizim ishidagi yoki inson organizmidagi buzilishlarni kuzatishlar ma'lumotlari asosida xulosa chiqarish)

**Loyihalash bosqichi** (belgilangan cheklashlarni qoniqtiradigan obyektlarning shaklini qurish)

**Rejalashtirish bosqichi** (ko'zlangan maqsadga erishish uchun harakatlar rejasini

## **Ekspert tizimlari klassifikatsiyasi**

**Nazorat bosqichi** (xavf yoki kutilmagan vaziyat to‘g‘risida ogohlasmashirish berish)

**Tuzatish bosqichi** (tizim faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar berish)

**Ta’mirlash bosqichi** (tizimda aniqlangan kamchiliklarni tugatish)

**O‘qitish bosqichi** (foydalanuvchilar malakasini oshirish, qayta tayyorlash)

**Boshqarish bosqichi** (tizimni o‘zgaruvchi sharoitlarga moslash)

**1-bosqich.**  
**Identifikatsiya**

**6-bosqich.**  
**Natijalardan  
foydalanish**

**2-bosqich.**  
**Konzeptualizatsiya**

**Ekspert tizimini  
yaratish  
texnologiyasi  
bosqichlari**

**5-bosqich.**  
**Sinash**

**3-bosqich.**  
**Formallashtiris**

**4-bosqich.**  
**Bajarish**

## 1-bosqichda qanday ishlar amalga oshiriladi?

***Identifikatsiya*** bosqichi bo'lg'usi ET yechishi kerak bo'lgan masalalarни tushunish va unga qo'yiladigan talablarni shakllantirish bilan bog'liq.

Ushbu bosqichda tizim nima qiladi va qanday resurslardan foydalanish kerak degan savolga javob olish kerak (masalani identifikatsiyalash, loyihalash jarayoni ishtirokchilarini va ularning o'rnnini aniqlash, resurslar va maqsadlarni ko'rsatish).

Masalani identifikatsiyalash uning shaklsiz (verbal) bayonnomasini tuzishdan iborat bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi: masalaning umumiy tavsifi; uning ichida ajratiladigan bo'lak masalalar; kalitli tushunchalar (obyektlar), ularning kiruvchi va chiquvchi o'lchamlari; yechimning taxminiy ko'rinishi hamda yechilayotgan masalaga tegishli bilimlar

## **2-bosqichda qanday ishlar amalga oshiriladi?**

*Kontseptualizatsiya* bosqichida muammoli soha mazmunli taxlil qilinadi,

foydalanimadigan tushunchalar va ularning o‘zaro aloqalari ko‘rsatiladi, masalani yechish usullari aniqlanadi. U bilim sohasining o‘z ichiga asosiy qoidalar va munosabatlarni oladigan modelini yaratish bilan yakunlanadi. Bu bosqichda masalaning quyidagi xususiyatlari aniqlanadi: foydalanimadigan ma‘lumotlar turla-ri; boshlang‘ich va chiqariladigan ma‘lumotlar, umumiylashtirilgan masalaning ichki masalalari; foydalanimadigan strategiyalar va gipotezalar; obyektlar orasidagi o‘zaro aloqa-lar turlari; foydalanimadigan munosabatlarni (iyerarxiya, sabab-oqibat, bo‘lak-butun va sh.o’.); yechish davrida foydalanimadigan jarayonlar; yechishni bajarish uchun zarur bilimlar tarkibi; yechish davrida foydalanimadigan jarayonlarga qo‘yi-ladigan cheklashlar turlari; qabul qilingan yechimlarni asoslash uchun foydalana-digan bilimlar tarkibi.

### **3-bosqichda qanday ishlar amalga oshiriladi?**

**Formalashtirish** bosqichida barcha tushunchalar va munosabatlar ma'lum bir formallashtirilgan tilda bayon etiladi, u yoki mavjud tillar orasidan tanlanadi, yoki yangidан yaratiladi. Professional bilimlarni formallashtirishning asosiy muammolaridan biri to'la yoki qisman bajarilishi mutaxassis bo'lmagan ijrochiga yuklanishi mumkin bo'lgan masalani aniqlashdir.

**Yaxshi formallahsgan** deb shunday masalalarga aytiladiki, ular yechilishining ketma-ketligi tartibi shunchalik to'la va tushunarli yozilganligi sababli, umuman mutaxassis bo'lmagan bajaruvchi ham ushbu bayonnomadan foydalanib, malakali mutaxassis ishtirokisiz, qanoatlanarli yechimni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Kam formallahsgan** masalalarda faqat ayrim harakatlarni bajarishning ketma-ketligini yozib ko'rsatish mumkin. Bunday hollarda mutaxassis bo'lmagan bajaruvchi bayonnomadan foydalanib, zarur bo'lganda malakali mutaxassisdan maslahat olib turishi kerak bo'ladi.

## **4-bosqichda qanday ishlar amalga oshiriladi?**

**Bajarish** bosqichining maqsadi - talab etilgan masalalarni yechuvchi ETning bitta yoki bir necha turlarini yaratishdir. O'xshash turlarini (prototiplarni) yaratish, uning bo'laklarini dasturlashdan yoki ularni ma'lum asbob vositalaridan tanlashdan hamda bilimlar bazasini to'ldirishdan iborat

## **5-6-bosqichlarda qanday ishlar amalga oshiriladi?**

**Sinash** (tes dan o'tkazish) bosqichida bilimlarni taqdim etishning tanlangan usulini va ET ishini to'liq baholash ishlari amalga oshiriladi.

**Tajriba foydalanishi** bosqichida ET ning foydalanuvchilar uchun yaroqliligi aniqlanadi.

# Ekspert tizimlarini yaratishda qanday muammolar vujudga keladi?

**Ma'lumotlarning yetarlik darajada to'liqliliginini ta'minlash.**

Bu kalit (asos bo'luvchi) bilimlarni ajratishni va ma'lumotlar tarkibida ularning o'zaro aloqalarini belgilash hamda amaliy masalalarni yechish uchun ushbu ma'lumotlardan samarali foydalanish imkonini beradigan kodlash tizimini yaratish va foydalanishni talab etadi

**ET faoliyati sitatingining samarali bahosini olish va mos ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.**

Muammo shundan iboratki, mutaxassislar bilimi - bu oddiy ma'lumotlar va faktlar yig'indisi emas. Aloqalarning ko'p o'lchamliliginini yangilarini qo'shish yo'li bilan hisobga olishga formal urinishlar tizimning haddan tashqari yuki og'irlashishiga olib kelishi mumkin, natijada u yangi elementlarni qo'shish va mavjudlarining aloqalarini belgilash uchun yopiq bo'lib bo'ladi

**Yechiladigan masalalar tarkibining va bilimlarni sintezlashning ehtimollik xarakteriga egaligi sababli, ishonchsiz natijalarni olish imkoniyati**

## **Yer tuzish GATlarida ekspert tizimlarini qanday masalalarni yechishda qo'llash talab etiladi?**

Yer tuzish GATlarida ekspert tizimlarini qo'llash talab etiladigan masalalarni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- **videotasvirlarga ishlov berish;**
- **rastrli tasvirlarni vektorli grafikaviy modellarga aylantirish;**
- **kartografik ma'lumotlarga ishlov berish;**
- **har xil turdag'i ma'lumotlarni tartibga solish va ishlov berish;**
- **obyektlar yoki joylar modellarini yaratish;**
- **GAT modellarini taxlil qilish;**
- **geoaxborotlar asosida loyihaviy yechimlarni olish.**

## **ETlearning boshqa avtomatlash tirilgan tizimlarga nisbatan asosiy ustunliklari**

yaqin vaqtargacha EHM larda yechilishi qiyin yoki mumkin bo'Imagan, qiyin formallashtiriladigan masalalarning yangi sinflari bahosini olish yoki ularni optimallash, yechish imkoniyati

oddiy foydalanuvchiga tabiiy tilda muloqat olib borish va EHM dan foydalanish uchun ma'lumotlarni ko'rinarli holatga keltirish usullarini qo'llash va yer tuzish masalalarini yechish imkoniyatini ta'minlash

yana-da ishonchli va malakali xulosalar yoki yechimlar olish uchun ma'lumotlarni, bilimlarni, bilimlardan foydalanish qoidalarini, ET ni mustaqil o'rganish tartiblarini to'plash

ma'lumotlar yo'qligi yoki uning har xilligi, yoki odatdagи yechishning hattoki EHM yordamida ham cho'zilishi sababli, foydalanuvchining o'zi yechish imkoniyatiga ega bo'Imagan masalalar va muammolarni yechish

## **ETIarning boshqa avtomatlash tirilgan tizimlarga nisbatan asosiy ustunliklari**

rivojlangan instrumental vositalardan va tizimni yaratuvchining shaxsiy tajribasidan foydalanish hisobiga, individual ixtisoslashgan ET larni yaratish imkoniyati

yer tuzishni loyihalashda noan'anaviy qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish

oyihalashda ko'rildigan variantlar (yechimlar) sonini keskin ko'paytirish

loyihalashda xatolarga yo'l qo'yish tavakkalchilagini kamaytirish hisobiga loyihaviy yechimlar aniqligini va sifatini oshirish

## YER TUZISHDA ET QANDAY VOSITALARNI O'Z ICHIGA OLADI?

**Yer tuzishda ET** - bu yer tuzish sohasida malakali mutaxassislar (ekspertlar) bilimlarini EHM da taqdim etish uchun mo'ljallangan, yer tuzish masalalarini yechishda oddiy bajaruvchilarga foydalanish imkonini beradigan maxsus vositalar tizimidir.

Demak umumiyl xulosa qilganda yer tuzishda ET ni yaratish va joriy etish loyihalashning yangi texnologiyasi yaratilishiga olib kelishi kerak. Unda loyihani ishlash bosqichlarining an'anaviy majmui, o'zaro aloqalarining barcha murakkabliklari bilan yagona masala sifatida qaralishi talab qilinadi.

# O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH BO'YICHA SAVOLLAR:

1. EKSPERT TIZIMI TUSHUNCHASI NIMANI ANGLATADI?
2. EKSPERT TIZIMLARI KLASSIFIKATSIYASI O'Z ICHIGA QANDAY BOSQICHLARNI OLADI?
3. EKSPERT TIZIMLARINING BOSHQA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARGA NISBATAN ASOSIY USTUNLIKLARI NIMALARDA NAMOYON BO'LADI?
4. YER TUZISHDA EKSPERT TIZIMLARI QANDAY VOSITALARNI O'Z ICHIGA OLADI?

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!!!



Muqqumov Abdug'ani  
Muratovich



TIQXMMI “Yerdan  
foydalanish” kafedrasi



+ 998 945811900



a.mukumov@tiiame.uz



@Abdugani Muqumov